

ARAB TILI FONETIKASINI O'ZLASHTIRISHDA INTERFRENSIYA MUAMMOLARI VA UNI YENGISHNING PSIXOLINGVISTIK USULLARI

Nurmuhammadova Nozima Abdug`affor qizi

O'zbekiston Davlat Jahon Tillari Universiteti

nurmuhammadovanozima15@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada arab tili fonetik tizimini o'rganish jarayonida ona tilining ta'siri natijasida yuzaga keladigan lingvistik interfreksiya hodisasi hamda arab tiliga xos bo'lgan ba'zi bo'g'iz va chuqur artikulyatsiyali undosh tovushlar talaffuzida uchraydigan fonetik xatolarning sabablari yoritiladi. Shuningdek, muammolarni bartaraf etishda psixolingvistika tamoyillariga asoslangan yondashuvlar va usullarning samaradorligi ham asoslab beriladi.

Kalit so'zlar. Interfreksiya, arab tili, talaffuz, psixolingvistik, fonetika.

Kirish

Bugungi kunda xorijiy tillarni o'rganishda nafaqat grammatik qoidalar, balki talaffuz madaniyati va fonetik aniqlikka erishish ham yosh o'quvchilar uchun ustuvor vazifalardan biri ekanligi barchaga ma'lum. Arab tili ham o'zining murakkab fonetik qurilishi va undosh tovushlarining talaffuz artikulyatsiyasi jihatidan boshqa tillardan tubdan farq qiladi. Shu bois, arab tili o'rganuvchilari uchun to'g'ri talaffuzni to'liq egallash yuqori aniqlik va har tomonlama mukammallikni talab etadigan murakkab psixolingvistik jarayon sifatida qaraladi.

Lingvistik interfreksiya va arab tili fonetikasi

Lingvistik interfreksiya tushunchasi o'zining etimologik asosiga ko'ra, (lotincha *inter-* aro, o'rtasida va *ferens-* tashuvchi, uriluvchi) ya'ni ikki yoki undan ortiq tillarning o'zaro to'qnashuvi natijasida bir til normalarining ikkinchi tilga ta'sir qilishi va unda xatoliklar keltirib chiqarishini anglatadi. Bu hodisa odatda inson ona tilidan tashqari boshqa tilni o'rganayotgan paytda yoki o'sha tilda muloqot jarayonida yaqqol namoyon bo'ladi. Arab tili misolida ko'radigan bo'lsak, Mashhura Qosimova o'z maqolasida aytib o'tganidek, "Psixolingvistik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, arab tilidagi chuqur bo'g'iz va emfatik undoshlar (ح خ ع غ ص ض ط ظ) o'zbek yoki rus tili o'quvchilari uchun eng murakkab segmentlar hisoblanadi". Aytish joizki, ko'pchilik o'quvchilar bu tovushlarni talaffuz qilayotganda o'z ona tillaridagidek artikulyatsiyaga tayanib, xatolarga yo'l qo'yishadi. Bu esa nafaqat talaffuzdagi xato balki arab tilida so'z ma'nosini tubdan o'zgartirib yuboradi. Bu holat interfreksiya turlarining fonetik turiga kirib, chet tilidagi tovushlarni o'z ona tilidagi tovushlar bilan almashtirib qo'yish hisoblanadi.

Talaffuzdagi kamchiliklarni bartaraf etuvchi psixolingvistik usullar

Arab tili fonetik tizimini o'rganish mobaynida yuzaga keladigan lingvistik interfreksiyani kamaytirishda va talaffuzdagi xatolarni bartaraf etishda bir necha psixolingvistik usullar samarali hisoblanadi:

-Artikulyatsion vizualizatsiya usuli: Bu usul o'quvchidan nutq tovushlarini to'g'ri talaffuz qilish jarayonida o'z ongida artikulyatsion organlar (til, lab, bo'g'iz, jag') harakatini tasavvur qilishiga asoslanadi. Shu tariqa u tovushlarni qanday hosil bo'lishini ko'z oldiga keltira oladi va takrorlashga harakat qiladi. Arab tilidagi chuqur va bo'g'iz undoshlar (ح خ ع) ni o'zlashtirishda bu usul juda samarali ekanligi ko'p marotaba

ta'kidlangan chunki bu talaffuzni mexanik emas, balki ongli ravishda boshqarish hisoblanadi.

-Fonematik eshitish qobiliyatini rivojlantirish: Bu usul ko'proq o'quvchining turli tovushlarni farqlash va ularni to'g'ri idrok etish ko'nikmasini shakllantirishga qaratilgan. Arab tilidagi bir-biriga yaqin va o'xshash tovushlarni o'rtasidagi farqni (misol uchun: ح و س va س ص) qayta va qayta eshitish orqali ajratish interfrensiyani kamaytiradi. Natijada, o'quvchi nafaqat to'g'ri eshitadi, balki to'g'ri talaffuz ham qila olish imkoniga ega bo'ladi. Bundan tashqari, bu usul eshitish va nutq orasidagi o'zaro bog'liqlikni mustahkamlaydi.

-Shadowing usuli: Bu usul faqatgina arab tili emas, balki til sohasida bo'lgan barcha insonlar uchun mashhur usullardan biri ekanligi ma'lum, lekin barcha ham bu psixolingvistik usullardan biri ekanligi haqida to'liq ma'lumotga ega emas. Shadowing usuli tinglagan nutqni darhol, to'xtamasdan va imkon qadar aniq takrorlashga asoslanadi. Bunda o'quvchi audio materialni tinglab, bir vaqtning o'zida uni takrorlashi kerak bo'ladi. Bu jarayon talaffuzning avtomatlashtirilishiga, nutq tezligining oshishiga va fonetik xatolarning kamayishiga yordam beradi.

Kognitiv-mushak xotirasi usuli: Bu usul organlarning harakatlarini takroriy mashqlar orqali avtomatik darajaga yetkazishga asoslangan bo'lib, o'quvchi bir tovush yoki so'zni ko'p marta to'g'ri talaffuz qilish natijasida mushaklar "xotira" hosil qila boshlaydi. Keyinchalik, talaffuz ongli nazoratsiz ham to'g'ri amalga oshadi. Arab tilidagi murakkab fonemalarni o'rganishda bu usul juda muhim rol o'ynaydi.

-Audiolingval mashqlar: Bu usulda o'quvchi avval tovush yoki matnni tinglaydi, so'ng uni takrorlashga harakat qiladi va bu avtomatik tarzda nutq reflekslarini shakllantiradi. Grammatik tuzilmalar va talaffuz bir vaqtning o'zida mustahkamlanadi. Arab tili fonetikasini organishda yana bir foydali usullardan biri hisoblanadi.

Xulosa. Arab tili nafaqat grammatika, balki murakkab fonetik va lingvistik tizimga ega bo'lgan yaxlit til hisoblanadi. Uni mukammal o'zlashtirish o'quvchidan yuqori darajada diqqat, sabr va muntazam mashqni talab qiladi. Ayniqsa, arab tilining fonetik tizimini o'rganish jarayonida lingvistik interfrensiya muammosi muhim o'rin tutadi va bu ona tili ta'siri natijasida talaffuzda turli xatolarga olib keladi. Ushbu muammolarni bartaraf etishda esa psixolingvistik yondashuvlar alohida ahamiyat kasb etishi hech kimga sir emas. Artikulyatsion vizualizatsiya, fonematik eshittirishni rivojlantirish, shadowing usuli hamda audiolingval mashqlar kabi metodlar talaffuzni to'g'ri shakllantirish va avtomatlashtirishga yordam beradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Qodirova M. Arab tili fonetik tizimini o'zlashtirishda lisoniy interfrensiya va ularni bartaraf etishning psixolingvistik yo'llari. (2026) Zamonaviy taraqqiyot va fan 21-asr yondashuvlari <https://journalss.org/index.php/zam/article/view/17744>

2. Levelt, Willem J (1989). Speaking: From intention to articulation. MIT Press.

3. Zimnyaya, I. A. Психология обучения иностранным языкам (1991)